




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING YANVAR OYIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi
- 1 508,9
mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
64,9 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish
sur'atlari –
114,3 %




SOHASI

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
378,2 ming so'm

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
ulushi –
67,7 %

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
112,1 %




Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 508,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **278,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **114,3 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari






Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	1 508,9	114,3
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,1	116,3
Moliyaviy xizmatlar	263,4	131,2
Transport xizmatlari	325,3	114,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	302,0	109,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	46,1	120,5
Savdo xizmatlari	421,7	108,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	38,6	115,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	52,4	89,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	33,1	108,8
Ijara xizmatlari	47,7	89,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	41,4	109,3
Shaxsiy xizmatlar	67,7	109,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	50,1	142,0
Boshqa xizmatlar	44,3	125,8



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da





Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **325,3** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **14,2** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,6** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar oyida)

Boshqa
transport
faoliyati

7,2 %



92,8 %

Avtomobil
transporti
xizmatlari

2022- yilning yanvar oyida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **92,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **97,1** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2021- y. yanvar

2022- y. yanvar




Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2022- yilning yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,8 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,9 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar





Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **27,9 %** ni tashkil etib, bu **421,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning hajmi **353,0** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **28,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari





Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **76,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **15,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,8 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da

(2022- yil yanvar oyida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida chakana savdo ulushi **76,2 %** ga yetdi



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar oyida)

2022- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **263,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ularning hajmi **200,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **17,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning ulushi **16,2** % ni tashkil etgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **63,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **31,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **91,0** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,2 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,5 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar oyida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar




Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,8 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **5,5 %**.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar

2022- y.
yanvar





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi

Info

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **52,4** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,5 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **89,6 %** ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar

2022- y.
yanvar



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2021- yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **12,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.
yanvar

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- y.
yanvar



2022- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **94,6** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,5** % ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

378,2
ming so'm

63,7
ming so'mga

112,1 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **378,2** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **112,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **314,5** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **100,3 %** da qayd etilgan.

